



**O‘ZBEKISTON AHOLISI MOLIVAVIY SAVODXONLIGINI
OSHIRISH: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR**

Sobirjonova Manija

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti

“Tadbirkorlik va boshqaruv” fakulteti

4MM-24 guruh talabasi

Gmail: manijasobirjonova4@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada O‘zbekistonda aholining moliyaviy savodxonligi bilan bog‘liq muammolar va ularni bartaraf etish yo‘llari ko‘rib chiqilgan. Moliyaviy savodxonlik darajasi tahlil qilinib, mavjud muammolar statistik ma‘lumotlar va real misollar asosida o‘rganilgan. Shuningdek, bu muammolarni hal etishda ta‘lim tizimi va davlat dasturlarining o‘rni muhim ekanligi ta‘kidlanib, moliyaviy bilimlarni keng targ‘ib qilish va ta‘lim jarayoniga integratsiya qilish bo‘yicha amaliy takliflar ilgari surilgan.

Kalit so‘zlar: moliyaviy savodxonlik, ta‘lim dasturlari, investitsiya, moliyaviy boshqaruv, raqamli moliyaviy texnologiyalar, iqtisodiy barqarorlik, venchur fondlari, Wefounder, Kickstarter, factoring, forfeiting, blokcheyn, kriptovalyuta.

Moliyaviy savodxonlik, har bir oila uchun moddiy farovonlikni ta‘minlashda muhim rol o‘ynaydi. Ammo xorijiy va mahalliy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, moliyaviy bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lgan aholi soni juda kam, bu esa nafaqat oilalar barqarorligiga, balki makroiqtisodiy rivojlanishning muvozanatli bo‘lishiga tahdid soladi. Oila uchun yetarli darajada moliyaviy savodxonlik bo‘lsa, bu oila byudjetini ratsional tarzda rejalashtirishga yordam beradi, iqtisodiy inqirozlar vaqtida zaiflikni kamaytiradi, firibgarlikning oldini olishga yordam beradi va shaxsiy maqsadlarni amalga oshirishga yordam beradi. Bundan tashqari, moliyaviy savodxonlik moliya bozorining rivojlanishiga, moliyaviy institutlarga bo‘lgan ishonchni oshirishga va davlat iqtisodiyotining qo‘shimcha investitsiya resurslari bilan to‘lishiga hissa qo‘shadi.¹

¹ Алексеева Н.В. (2017). "Повышение финансовой грамотности населения: необходимость, положительные эффекты, роль и потенциал вузов". Вестник Российского университета кооперации, №3(29).





Bugungi kunda moliyaviy savodxonlik tushunchasi moliyaviy ta'lim, kompetensiya, xabardorlik kabi atamalar bilan chambarchas bog'liq.² Ushbu tushunchalar o'rtasidagi asosiy farq ularning moliyaviy savodxonlik bilan bog'liq elementlarni qamrab olish va amalga oshirishning chuqurligi bilan bog'liq. Moliyaviy savodxonlik, ko'plab tadqiqotlarda, bilim va ko'nikmalarni o'z ichiga olgan kompetensiyalar yig'indisi sifatida ta'riflanadi.³

Moliyaviy savodxonlik keng qamrovli tushuncha bo'lib, shaxsning moliyaviy qarorlarni oqilona qabul qilishiga imkon beruvchi bilim va ko'nikmalar to'plamini anglatadi. Xalqaro tashkilotlarning ta'rifiga ko'ra, moliyaviy savodxonlik – bu insonning moliyaviy xabardorligi, bilim darajasi, moliyaviy masalalarga bo'lgan yondashuvi va ushbu bilimlarni amaliyotda qo'llay olish qobiliyatidir.

Moliyaviy savodxonlikning rasmiy ta'rifi, OECD hujjatlarida keltirilgan bo'lib, bu ma'lumotlar, bilimlar, ko'nikmalar, turmush tarzidagi yo'nalishlar va xulq-atvorni o'z ichiga oladi. Ularning yordamida shaxsiy moliyaviy farovonlikni ta'minlash uchun asoslangan moliyaviy qarorlar qabul qilinadi.⁴

Moliyaviy savodxonlik quyidagilarni ta'minlaydi:

- Oqilona byudjet tuzish va shaxsiy mablag'larni to'g'ri boshqarish.
- Moliyaviy firibgarliklarning oldini olish.
- Iqtisodiy qiyinchiliklarga bardosh berish.
- Moliyaviy bozorlarning rivojlanishiga hissa qo'shish.

Shuning uchun, moliyaviy ta'limni rivojlantirish har bir fuqaro va butun jamiyat uchun ijobiy natijalar beradi.

O'zbekistonda, boshqa ko'plab mamlakatlar singari, aholining moliyaviy savodxonligini oshirish masalasi dolzarb bo'lib qolmoqda. Ushbu sohada ba'zi yutuqlarga erishilgan bo'lsa-da, amalga oshirilishi kerak bo'lgan ko'plab ishlar mavjud:

1. Moliyaviy ta'limning yetarli darajada yo'lga qo'yilmaganligi:

O'zbekistonda moliyaviy ta'lim tizimi hali yetarli darajada rivojlanmagan bo'lib, maktab va universitetlarda moliyaviy savodxonlik bo'yicha maxsus kurslarning cheklanganligi bu sohadagi eng katta muammolardan biri hisoblanadi. Ko'plab ta'lim muassasalarida shaxsiy moliya, investitsiyalar, byudjet boshqaruvi va kredit tizimi kabi muhim moliyaviy tushunchalar chuqur o'rganilmaydi, bu esa yoshlarning moliyaviy

² Судакова А.Е. (2017). "Финансовая грамотность: теоретическое осмысление и практическое исследование". Финансы и кредит, Т.23, №26, с.1563-1582.

³ Huston S.J. (2010). "Measuring Financial Literacy". The Journal of Consumer Affairs, vol. 44, no. 2, pp. 296–316.

⁴ Bernheim B.D., Garrett D.M., Maki D.M. (2001). "Education and Saving: The long-term effects of high school financial curriculum mandates". Journal of Public Economics, vol. 80, no. 3, pp. 435–465.





barqarorligi va kelajakda mustaqil moliyaviy qarorlar qabul qilish qobiliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Shuningdek, mavjud ta'lim dasturlarining eskirganligi ham dolzarb masala bo'lib, ba'zi o'quv materiallari zamonaviy moliyaviy bozor talablariga javob bermaydi va yangi moliyaviy texnologiyalar, raqamli to'lov tizimlari, kriptovalyutalar, elektron tijorat kabi sohalarni yetarli darajada qamrab olmaydi. Natijada, talabalarga berilayotgan bilimlar tezda eskirib, ularning amaliy hayotga tatbiq etilishi qiyinlashadi. Bundan tashqari, moliyaviy ta'lim dasturlarining aksariyati nazariy ma'lumotlar bilan cheklanib qolmoqda, amaliy mashg'ulotlar va real hayotiy vaziyatlarni o'rganishga yetarlicha e'tibor qaratilmaydi. Talabalarga shaxsiy byudjetni rejalashtirish, investitsiyalarni to'g'ri yo'naltirish, bank kreditlaridan oqilona foydalanish va moliyaviy tavakkalchiliklarni baholash bo'yicha aniq ko'nikmalar berilmagani sababli, ular hayotga mustaqil kirib kelganida moliyaviy muammolarga duch kelishi mumkin.

Misol uchun, aholi hali Venchur fondlaridan foydalanish va ularga investitsiya kiritish haqida ma'lumotga ega emas. Venchur kapitali — bu yuqori xavf va yuqori daromad keltirishi mumkin bo'lgan startaplar va kichik bizneslarga kiritiladigan investitsiyalardir. An'anaviy bank kreditlariga nisbatan, venchur kapitali tadbirkorlarga moliyaviy resurslarni jalb qilishda muqobil yo'l hisoblanadi. Bu usul bank kreditlariga qaramlikni kamaytirib, innovatsion loyihalarni rivojlantirishga xizmat qiladi.

2. Aholining moliyaviy xizmatlar va mahsulotlar haqidagi xabardorligi pastligi:

O'zbekistonda aholining moliyaviy mahsulotlar, investitsiyalar va kreditlash bo'yicha yetarli ma'lumotga ega emasligi moliyaviy barqarorlikka jiddiy ta'sir ko'rsatmoqda. Ko'pchilik fuqarolar kredit olish shartlari, foiz stavkalari, investitsiya imkoniyatlari va boshqa moliyaviy vositalarning afzalliklari hamda xavflari haqida yetarlicha tushunchaga ega bo'lmagani sababli noto'g'ri moliyaviy qarorlar qabul qilishga moyil bo'ladi. Bu esa ularning moliyaviy xavfsizligiga salbiy ta'sir qilib, ortiqcha qarz yukiga tushib qolish yoki o'z mablag'larini samarasiz ishlatish xavfini oshiradi. Shuningdek, investitsiya madaniyatining rivojlanmagani aholining jamg'armalarini samarali boshqarishiga to'sqinlik qilmoqda.

Odamlar o'z mablag'larini qanday qilib foydali investitsiya qilish, aktivlarini qanday diversifikatsiya qilish va uzoq muddatli moliyaviy barqarorlikni ta'minlash bo'yicha yetarli bilimga ega emas. Ko'pchilik hali ham jamg'armalarni faqat naqd shaklda saqlash yoki juda kam foyda keltiradigan oddiy bank omonatlariga joylashtirish bilan cheklanadi, bu esa ularning kelajakdagi moliyaviy imkoniyatlarini kengaytirishga to'sqinlik qiladi.

3. Madaniy va til to'siqlari:





O'zbekiston ko'p millatli va ko'p madaniyatli jamiyat bo'lgani sababli, moliyaviy ta'limni barcha aholigacha yetkazish va ularning ehtiyojlariga moslashtirish qiyinchilik tug'dirishi mumkin. Turli milliy guruhlarining tili, madaniy qadriyatlari va iqtisodiy tushunchalari bir-biridan farq qilgani uchun, moliyaviy ta'lim dasturlarini ishlab chiqishda ularning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olish zarur. Aks holda, ba'zi guruhlar moliyaviy xizmatlar va mahsulotlar to'g'risida yetarli ma'lumotga ega bo'la olmaydi, bu esa ularning iqtisodiy imkoniyatlarini cheklaydi.

Moliyaviy ta'lim materiallarining asosan o'zbek va rus tillarida tayyorlanishi boshqa milliy guruhlariga mansub aholining ushbu ma'lumotlardan to'liq foydalanishiga to'sqinlik qilishi mumkin.

4. Bank xizmatlariga cheklangan kirish:

O'zbekistonning ayrim hududlarida bank infratuzilmasining yetarli darajada rivojlanmagani aholining moliyaviy xizmatlarga kirish imkoniyatini cheklab qo'yimoqda. Ayniqsa, qishloq joylarida bank filiallarining kamligi yoki umuman yo'qligi odamlarning asosiy moliyaviy operatsiyalarni amalga oshirishiga to'sqinlik qiladi. Shuningdek, bankomatlar va raqamli moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarining cheklanganligi ham moliyaviy tizimga to'liq integratsiyalashish jarayonini sekinlashtiradi. Bu esa aholining katta qismini norasmiy moliyaviy operatsiyalarga yoki xavfli kredit sxemalariga murojaat qilishga majbur qilishi mumkin.

Moliyaviy xizmatlarga kirishning cheklanganligi nafaqat infratuzilma muammosi, balki aholining iqtisodiy holati va bilim darajasi bilan ham bog'liq. Ko'pchilik fuqarolar bank xizmatlaridan foydalanish bo'yicha yetarlicha bilimga ega emasligi sababli, mavjud imkoniyatlardan to'liq foydalana olmaydi. Masalan, bank kreditlari, depozitlar, sug'urta xizmatlari yoki to'lov tizimlaridan qanday foydalanishni tushunmaslik odamlarning moliyaviy imkoniyatlarini cheklaydi.

Faktoring va forfeyting kichik va o'rta biznes subyektlari uchun muhim moliyaviy vositalardir. Faktoring — bu kompaniyaning debitorlik qarzlarini moliya muassasasiga sotish orqali naqd pul olish imkonini beruvchi xizmatdir. O'zbekistonda 2024-yilda faktoring xizmatlari hajmi 1,9 trillion so'mga yetdi, shundan 76% qismi Toshkent shahriga to'g'ri keladi. Forfeyting esa eksport qiluvchi korxonalarga uzoq muddatli to'lovlarni naqdlashtirishda yordam beruvchi moliyaviy instrument bo'lib, ularning likvidligini oshiradi. Faktoring kompaniyalarga debitorlik qarzlarini sotish orqali naqd pul olish imkonini bersa, forfeyting eksport qiluvchi korxonalarga uzoq muddatli to'lovlarni naqdlashtirishda yordam beradi.





YECHIM VA TAKLIFLAR

Aholi moliyaviy savodxonligini oshirish uchun kompleks yondashuv zarur. Quyida ushbu muammolarni hal etish bo'yicha takliflar berilgan:

1. Moliyaviy ta'limni kuchaytirish:

Moliyaviy savodxonlik darajasini oshirish uchun ta'lim tizimini kuchaytirish va uni zamonaviy talablar asosida rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Eng avvalo, maktab va universitetlar dasturlariga moliyaviy savodxonlik bo'yicha maxsus kurslarni joriy etish lozim. Ushbu kurslar orqali o'quvchilarga shaxsiy moliyaviy rejalashtirish, investitsiya imkoniyatlari, byudjetni samarali boshqarish, kreditlash va moliyaviy tavakkalchiliklarni baholash kabi asosiy tushunchalar o'rgatilishi kerak. Shuningdek, mavjud ta'lim dasturlarini modernizatsiya qilish zarur, chunki bugungi kunda moliyaviy bozorlar va texnologiyalar jadal rivojlanmoqda, va mavjud darsliklar aksariyat hollarda zamonaviy talablarni qondira olmaydi. O'quv materiallari raqamli moliyaviy xizmatlar, blokcheyn texnologiyalari, elektron tijorat va global moliya bozorlari haqidagi dolzarb ma'lumotlarni o'z ichiga olishi kerak.

Nazariy bilimlarning amaliyot bilan bog'lanmaganligi sababli, moliyaviy ta'limga amaliy mashg'ulotlarni kiritish ham muhimdir. Talabalar va o'quvchilarga real hayotiy vaziyatlar asosida moliyaviy rejalashtirish, sarmoya kiritish va mablag'larni oqilona boshqarish bo'yicha ko'nikmalar berish maqsadida seminarlar, ishchi guruhlar va amaliy treninglarni yo'lga qo'yish lozim. Bundan tashqari, moliyaviy simulyatsiyalar, interaktiv o'yinlar va virtual investitsiya loyihalarini tatbiq etish orqali talabalar bilimlarini mustahkamlash mumkin.

Ushbu chora-tadbirlar aholi orasida moliyaviy madaniyatni rivojlantirishga yordam berib, ularning iqtisodiy mustaqilligini ta'minlashga xizmat qiladi.

2. Aholining moliyaviy xizmatlar va mahsulotlar haqidagi xabardorligini oshirish:

Aholining moliyaviy mahsulotlar va xizmatlar haqidagi xabardorligini oshirish moliyaviy savodxonlik darajasini oshirishning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Ko'plab fuqarolar bank kreditlari, sug'urta mahsulotlari, investitsiya imkoniyatlari va moliyaviy boshqaruv vositalari haqida yetarli bilimga ega emasligi sababli, noto'g'ri moliyaviy qarorlar qabul qiladi yoki mavjud imkoniyatlardan samarali foydalana olmaydi. Vaholangki, Shaxsiy byudjetni boshqarish va kichik tadbirkorlar uchun moliyaviy oqimlarni nazorat qilishda yordam beruvchi ko'plab dasturlar mavjud. Masalan, "Monefy", "YNAB (You Need a Budget)" va "PocketGuard" kabi ilovalar shaxsiy moliyani boshqarishda samarali vositalardir.

Ushbu muammoni hal qilish uchun, avvalo, moliyaviy mahsulotlar haqida to'g'ri va aniq ma'lumotlar taqdim etuvchi onlayn platformalar va mobil ilovalarni





yaratish zarur. Ushbu resurslar orqali foydalanuvchilarga kredit shartlari, depozit turlari, sarmoya kiritish imkoniyatlari va boshqa moliyaviy xizmatlar haqida batafsil va tushunarli ma'lumotlar taqdim etilishi kerak.

Shuningdek, investitsiya madaniyatini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Aholini investitsiyalar bilan tanishtirish, kapitalni samarali boshqarish va moliyaviy strategiyalarni tushuntirish maqsadida maxsus kurslar va seminarlar tashkil qilish lozim. Investitsiya bo'yicha treninglar, interaktiv moliyaviy dasturlar hamda muvaffaqiyatli investorlar ishtirokida o'tkaziladigan tadbirlar orqali aholiga real misollar asosida bilim berish mumkin. Bu chora-tadbirlar aholining moliyaviy resurslarini yanada samarali boshqarishiga, investitsiya imkoniyatlaridan oqilona foydalanishiga va uzoq muddatli moliyaviy barqarorlikka erishishiga yordam beradi.

3. Moliyaviy xizmatlarga kirishni oshirish:

Aholining moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish moliyaviy inklyuziyani oshirish va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashning muhim omillaridan biridir. Hozirgi kunda bank infratuzilmasining cheklanganligi, ayniqsa, qishloq va olis hududlarda yashovchi aholining moliyaviy xizmatlarga kirish imkoniyatlarini kamaytiradi. Ushbu muammoni hal qilishning eng samarali usullaridan biri mobil bank xizmatlarini rivojlantirishdir. Mobil banking texnologiyalarining keng joriy etilishi fuqarolarga bank filiallariga tashrif buyurmasdan turib, moliyaviy operatsiyalarni amalga oshirish imkoniyatini yaratadi. Bu orqali aholining nafaqat hisob ochish va pul o'tkazmalarini amalga oshirish, balki kredit olish, investitsiya qilish va boshqa moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlari kengayadi.

Mobil ilovalar orqali avtomatlashtirilgan xizmatlarni rivojlantirish va raqamli to'lov tizimlarini takomillashtirish aholiga bank xizmatlarini yanada qulay va tezkor tarzda taqdim etish imkonini beradi. Shu bilan birga, mobil banking xavfsizligini oshirish, aholiga raqamli moliyaviy savodxonlik bo'yicha treninglar tashkil qilish ham muhimdir.

Moliyaviy xizmatlarni raqamlashtirish nafaqat aholining bank tizimiga kirishini osonlashtiradi, balki iqtisodiy o'sishga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

4. Raqamli moliyaviy texnologiyalarni targ'ib qilish:

Zamonaviy iqtisodiyotda raqamli moliyaviy texnologiyalar muhim o'rin tutadi va ularni keng targ'ib qilish aholining moliyaviy savodxonligini oshirish hamda moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish uchun zarurdir. Bugungi kunda ko'plab fuqarolar mobil bank ilovalari, onlayn to'lov tizimlari va raqamli moliyaviy xizmatlardan foydalanishda qiyinchiliklarga duch kelmoqda, bu esa ularning moliyaviy operatsiyalarni amalga oshirish samaradorligini pasaytiradi.





Yil	Internet foydalanuvchilari soni (mln)	Moliyaviy hisob raqamiga ega aholining ulushi (%)	Raqamli to'lovlardan foydalanganlar (%)	Mobil qurilma yoki internet orqali to'lovlar amalga oshirganlar (%)	Mobil qurilma yoki internet orqali pul o'tkazmalari amalga oshirganlar (%)	Mobil qurilma yoki internet orqali komm to'lov ama oshirg (%)
2018	22.0	36.0	25.0	4.0	7.0	10.0
2019	24.5	38.5	28.0	5.0	8.5	12.0
2020	26.8	41.0	31.5	6.0	9.5	13.0
2021	29.0	43.5	35.0	7.0	11.0	15.0
2022	31.0	44.1	39.3	5.9	10.2	16.0
2023	33.0	46.5	42.0	8.0	12.5	18.0
2024	35.0	48.0	45.0	9.0	14.0	20.0

1-jadval. O'zbekiston aholisining 2018-2024 yillarda online moliyaviy xizmatlardan foydalanish ko'rsatkichlarining o'zgarishi

Ushbu muammoni hal qilish uchun aholiga raqamli moliyaviy texnologiyalar bo'yicha maxsus seminarlar va ta'lim dasturlarini tashkil etish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu dasturlar orqali fuqarolar mobil banking, elektron hamyonlar, kontaktsiz to'lovlar, blokcheyn texnologiyalari va kriptovalyutalar kabi zamonaviy moliyaviy vositalarning ishlash tamoyillari haqida tushunchaga ega bo'lishlari mumkin.

Blokcheyn texnologiyasi moliyaviy operatsiyalarning shaffofligi va xavfsizligini ta'minlasa-da, kriptovalyutalar moliyaviy savodxonlikni oshirishda cheklangan ta'sirga ega. Ularning yuqori volatilligi va spekulativ xarakteri sababli, aholining moliyaviy savodxonligini oshirishda ehtiyotkorlik bilan yondashish lozim. Shuningdek, raqamli moliyaviy xizmatlardan xavfsiz foydalanish bo'yicha treninglar o'tkazish ham muhim bo'lib, bu kiberxavfsizlik tahdidlariga qarshi samarali choralar ko'rishga yordam beradi. Interaktiv vebinarlar, video darsliklar va onlayn kurslar orqali aholining istalgan joydan turib moliyaviy texnologiyalar bo'yicha bilim olish imkoniyatlarini kengaytirish mumkin.

Yuqoridagi jadvaldan ko'rinib turibdiki, O'zbekistonda internet foydalanuvchilari soni va onlayn moliyaviy xizmatlardan foydalanish ko'rsatkichlari





yildan-yilga barqaror o'sib bormoqda. Xususan, 2018-yildan 2024-yilgacha internet foydalanuvchilari soni 22 milliondan 35 milliongacha oshgan. Moliyaviy hisob raqamiga ega aholining ulushi esa 36% dan 48% gacha ko'tarilgan. Bu esa aholining moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlari kengayib borayotganini ko'rsatadi.

Shuningdek, raqamli to'lovlardan foydalanganlar ulushi 2018-yildagi 25% dan 2024-yilda 45% gacha oshgan. Bu esa aholining raqamli moliyaviy xizmatlarga bo'lgan ishonchi ortib borayotganini anglatadi. Mobil qurilma yoki internet orqali to'lovlar, pul o'tkazmalari va kommunal to'lovlar amalga oshirganlar ulushi ham sezilarli darajada oshgan. Bu ko'rsatkichlar O'zbekistonda raqamli moliyaviy xizmatlarning rivojlanishi va ommalashib borayotganini tasdiqlaydi (1-jadval).

Raqamli moliyaviy savodxonlikni rivojlantirish nafaqat aholining kundalik moliyaviy hayotini osonlashtiradi, balki mamlakat iqtisodiyotining umumiy raqamlashtirish jarayoniga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

XULOSA

O'zbekistonda moliyaviy savodxonlikni oshirish mamlakatning barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish strategiyasining muhim qismiga aylanishi kerak. Hozirgi muammolarni tahlil qilish orqali, moliyaviy ta'limning yetishmasligi, moliyaviy mahsulotlar haqida xabardorlikning pastligi va moliyaviy xizmatlarga kirishdagi cheklovlarni hal etish uchun tizimli yondashuv zarurati ko'rsatiladi. Maxsus ta'lim kurslari, amaliy mashg'ulotlar, raqamli moliya texnologiyalarini o'rgatish va bank xizmatlariga kirishni kengaytirish – bu sohada ijobiy o'zgarishlarni amalga oshirishga yordam beradi.

Moliyaviy savodxonlikni oshirish uchun davlat, ta'lim muassasalari va moliyaviy institutlar o'rtasidagi hamkorlikning kuchaytirilishi muvaffaqiyatli moliyaviy ta'lim dasturlarini joriy etishga olib keladi. Wefounder va Kickstarter kabi kraudfunding platformalari startaplar va kichik bizneslar uchun moliyaviy resurslarni jalb qilishda samarali vositalardir. Ushbu platformalar orqali tadbirkorlar o'z loyihalarini keng auditoriyaga taqdim etib, kerakli mablag'ni yig'ishlari mumkin. O'zbekistonda bunday platformalardan foydalanishni kengaytirish orqali, biznes modellarini xalqaro darajaga olib chiqish va innovatsion loyihalarni qo'llab-quvvatlash mumkin.

Moliyaviy savodxonlikni oshirishga qaratilgan sarmoyalar nafaqat iqtisodiy madaniyatni oshiradi, balki fuqarolarning farovonligini ta'minlaydi va mamlakatning global maydonda raqobatbardoshligini oshiradi.





FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Алексеева Н.В. (2017). "Повышение финансовой грамотности населения: необходимость, положительные эффекты, роль и потенциал вузов". Вестник Российского университета кооперации, №3(29).
2. Судакова А.Е. (2017). "Финансовая грамотность: теоретическое осмысление и практическое исследование". Финансы и кредит, Т.23, №26, с.1563-1582.
3. Huston S.J. (2010). "Measuring Financial Literacy". The Journal of Consumer Affairs, vol. 44, no. 2, pp. 296–316.
4. Bernheim B.D., Garrett D.M., Maki D.M. (2001). "Education and Saving: The long-term effects of high school financial curriculum mandates". Journal of Public Economics, vol. 80, no. 3, pp. 435–465.

